

## O'RTA OSIYO QO'RIXONALARIGA TAVSIF

**Umaraliyeva Ziyodaxon Abdujabbor qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti tabiiy  
fanlar fakulteti geografiya va iqtisodiy bilim  
asoslari yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'rta Osiyoda joylashgan qo'riqxonalariga umumiy tavsif, ularning ahamiyati va ularda qo'riqlanadigan hayvon va o'simliklar haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Qo'riqxonalar, Orolpayg'ambar, to'qayzorlar, xongul, oq dumli dengiz burguti, Boday-To'qay.

**Kirish:** Tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlarning borgan sari jiddiylashuvi, joylarda xatto tang vaziyat mavjudligi tufayli atrof-muhit katta miqyosda shikastlanmoqda. Bu borada tabiatning eng nozik komponentlari — o'simlik va hayvonot olami zarar ko'rmoqda. Keyingi 2000 yillik insoniyat tarixida jami bo'lib sutemizuvchilarning 106 turi butunlay yo'qoldi. Birinchi 33 turdagi sutemizuvchilarning yer yuzasida yo'qolishi uchun 1800 yil kerak bo'lgan bo'lsa, undan keyingi 33 turga 100 yil va so'nggi 40 tur uchun esa faqat yarim asr kifoya qildi. Darvoqe, keyingi vaqtlarda qisqa muddatda ko'plab hayvonlarning qirilishi borgan sari tezlashmoqda. Chunonchi, Uzbekistonda keyingi 50 yil mobaynida giyena, turon yo'lbarsi, sirtlon, gepard tur sifatida yo'qoldi, ba'zi hayvon turlari esa miqdor jihatdan juda ham kamayib ketdi.

Noqulay ekologik sharoitda biosferaning ayrim go'shalarini saqlab qolish, ularda kamayib ketayotgan hayvonlar va o'simliklarni ko'paytirish yo'li bilan ularni butunlay yo'qolib ketish xavfidan qutqarib qolish eng dolzarb masala. Shuning uchun ham sayyoramizning turli burchaklarida qo'riqlanadigan maxsus hududlar tashkil qilingan. O'rta Osiyo va Qozog'istonda jami bo'lib 30 dan ziyod qo'riqxonalar bo'lib, ularning jami maydoni 2,3 mln ga yoki o'lka huududinng 1 % qismini egallaydi. Qo'riqlanadigan hududlar odatda qo'riqxonalar, milliy yoki tabiiy bog'lar, buyurtma, tabiatning noyob yodgorliklaridan iborat

bo'ladi. Qo'riqxonalar — tabiat komplekslarining shunday qismiki, unda barcha tabiiy komponentlar inson tomonidan deyarli o'zgartirilmagan, ya'ni tabiiy holda bo'lishligi bilan ajralib turadi. Qo'riqxonalar uchun ajratiladigan hudud mazkur landshaft uchun xarakterli va uning barcha xususiyatlarini aks ettirishi lozim.

Qo'riqxonada jiddiy muhofaza rejimi tashkil qilinadi, unda daraxt yoki butalarni ekish, gul, o't, qo'ziqorin terish, pichan o'rish, mol boqish qat'iy man etiladi. U yerga sayyohlar, ilmiy xodimlar va boshqa mutaxassislar qo'riqxonalar rahbariyati tomonidan olingan ruxsatdan so'ng kirishlari mumkin.

Qo'riqxonalar — tabiatning tabiiy andozalaridir. Ulardagi o'simlik olami va xayvonlari mazkur mintaqalar uchun tipik bo'ladi. Qo'riqxonalar atrofida qo'shni hududlarga o'tish uchun oraliq mintaqalar mavjud bo'lib, unda ham ov qilish taqiqlanadi, faqat pichan o'rish, ba'zan kasal daraxtlarni qirqishga ruxsat beriladi.

O'zbekistondagi qo'riqlanadigan hududlar — respublikada uch xil — tog-archa, to'qay va qum-cho'l landshaft turiga oid.

To'qay landshaftlarida joylashgan qo'riqxonalar — Boday-To'qay, Qizilum, Zarafshon, Orolpayg'ambar — asosan daryo qayirlari va deltalaridagi o'simlik va hayvonot olamini muhofaza qilishga xizmat qiladi. To'qayzorlarda daraxt turlaridan; ko'k(uzunchok) bargli turangil, jiyda, jung'or va Vilgelm tollari; butalardan: yulg'un, chinnigul, quyi yarusda turli o'tlar tartsalgan. Qo'riqxonalarda nomlari «Qizil kitob» ga kiritilgan hayvonlardan; maxaon (qora xolli katta sariq kapalak), turkman palagi; hasharotlardan — bolivariya, sora sanotli chittak, asal-ari-duradgor; baliqlardan — baxra baliq, suzanbaliq, soxta-patanos; qushlardan — ilon burgut, uzun dumli dengiz burguti, lochin; sutemizuvchilardan — xongul (Boday-To'qay).

Qizilqum qo'riqxonasida, shuningdek Orol losos baliq'i, cho'rtanbaliqqa o'xshash jerex, sovutli gekoncha, kulrang echkamar; qushlardan — pushti saqoqqush, birqozon, flamingo, marmar churrak, skopa, ilon burgut, cho'l burguti, burgut, uzun dumli dengiz burguti, to'xtatuvaloq qora boshli xoxotun, kolpitsa; sutemizuvchilardan — qoraquloq Zarafshon qo'riqxonasida yuqoridagilardan tashqari qirg'ovulni muhofaza qilishga katta ahamiyat berilmoqda, 1996 yildan boshlab xongul ko'paytirish boshlandi. O'simliklar orasida

oblepixa (chakanda) o'ziga xos o'rn egallaydi. Orolpayg'ambarda yuqoridagi xayvonlardan tashqari O'rta Osiyo kobrasi, qora laylak, turkiston oq laylagi, oq qorinli chil keng tarqalgan.

**Xulosa:** Qòriqxonalar tabiiy resurslarni, o'simlik va hayvonot dunyosini saqlab qolish va himoya qilish uchun tashkil etiladi. Bu o'z ichiga turli ekotizimlar, noyob va yo'qolib borayotgan turlarni saqlashni oladi. Qòriqxonalar ilmiy tadqiqotlar uchun ideal muhit yaratadi. Bu yerda biologlar, ekologlar va boshqa mutaxassislar tabiiy jarayonlarni, turlarning hayot faoliyatini, ularning ekologik munosabatlarini o'rganadilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Baratov.P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi 1996
2. Mamatqulov.M, Rafiqov A.A, O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi
3. O'.Abdunazarov, Sh. Sharipov, M.Mirkamolov, R.Ibragimova Umumiy tabiiy geografiya